

- turistik salohiyatga ega har bir hudud uchun uning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, industriya rivojiga to'sqinlik qilayotgan salbiy holatlarni muntazam tadqiq etgan holda hududiy maqsadli dasturlar ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich sinovdan o'tkazish tartibini joriy etish;

- raqamlashtirilgan turizm iqtisodiyoti, marketingi va boshqa muhim sohalar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonun va me'yoriy hujjatlar kontentini takomillashtirish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Goeldner.R.Ch, Ritchie.J.R(2012) *Tourism: Principles, practices, philosophies 12th edition. Printed in the United States of America.*

2. О.Г.Давыдова. *Инструменты государственного регулирования развития туристической деятельности в Украине.*

3. A.Mirzaxodjayev.(2024) *Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari.Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali.98-99-bet*

4. Галасюк С.С. *Модели государственного регулирования в сфере туризма. Одесса. Украинаю.*

5. Boltabayev.M.R.,Tuxliyev.I.S.,Safarov.B.Sh.,Abduxamidov.S.A(2018).*Turizm: Nazariya va Amaliyot.-T.:<<Barkamol fayz media>>nashriyoti.*

6. Panasiuk, A. (2019). *Tourism management by public administration institutions. Scientific Journal of the Military University of Land Forces, 192(2), 365–377. <https://doi.org/10.5604/01.3001.0013.2610>*

AGROTURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR

Yoriyeva Farangiz Murodillayevna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

farangiz.feyaaa@gmail.com

Agroturizm sohasini rivojlanishining jahon amaliyoti tahliliga ko'ra, agroturistlar tabiat qo'ynida xavfsiz sayohatni amalga oshirish istagida bo'lgan sayyohlar hisoblanganligi sababli ular ekologik muammolar nisbatan kamroq va insonlarning atrof-muhitga salbiy ta'siri darajasi past bo'lgan hududlarga tashrif buyurishni afzal ko'radilar. Bu esa agroturizmning ekologiya va atrof-muhit bilan bevosita bog'liq ekanligidan dalolat beradi. Shu sababli ham mamlakatda agroturizmni rivojlantirishda nafaqat atrof-muhitning himoyalanganlik darajasi, balki ekologik muammolarning keskinlashuvini oldini olish talab etiladi. Mamlakatda atrof-muhit va ekologik barqarorlik sohasidagi muammolarning avj olishi agroturizm salohiyatidan foydalanish samaradorligini keskin kamaytirib, ushbu sohani rivojlantirishdagi turli ziddiyatlarni vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Tahlillarga ko'ra, global iqlim o'zgarishlarining tobora avj olib borishi natijasida so'nggi o'n yillikda aksariyat mamlakatlarda yer resurslarining degradasiyaga uchrashi, cho'llanishi kabi muammolari avj olib bormoqda. Jumladan, bu turdagi global tabiiy-iqlimiy o'zgarishlar 13,4 mlrd. gektarga teng


bo'lgan butunjahon er fondining 14,9 foizini yoki qariyb 2,0 mlrd. gektar qismini foydalanish uchun yaroqsiz holatga kelishiga sabab bo'ldi[1].

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda jahon miqyosida o'rtacha yillik cho'llanish 6,0 mln. gektarni tashkil etmoqa. Jumladan, yer resurslarining degradasiyaga uchrashi jahon aholisining qariyb 1,2 mlrd qismi yashash shart-sharoitlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan holda, ularning hayotlari uchun turli xavf-xatarlarni vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, har yili biofizik holati yomonlashib borayotgan er resurslarining o'rta hisobda 29-30 foizi inson faoliyatining atrof- muhitga salbiy oqibatlariga sababli ro'y bermoqda.

O'zbekiston va unga tutash hududlardagi iqlim o'zgarishining oqibatlariga, birinchi navbatda, tabiiy-iqlimiy va suv resurslari o'zgarishlarini kiritish mumkin. Ulardagi o'zgarishlar respublikamizda tarqalgan tuproqlarning xossaxususiyatlarini yomonlashuvida hamda Orolbo'yi ekologik holati va xususan, Orol dengizida yuzaga kelayotgan salbiy ko'rinishlarda aks etadi. Tabiiy-iqlimiy resurslarning o'zgarishini baholashda bazaviy iqlimiy ssenariyalar sifatida yuqorida ko'rib chiqilgan regional iqlimiy ssenariyalar tanlab olingan. Ular 2030-yilgacha bo'lgan o'zgarishlarni baholashga imkon beradi. Umumiy ssenariyaviy qiymatlar O'zbekiston hududining real iqlimiy xilma-xilligiga moslashtirilgan va shundan keyin ular tabiiy-iqlimiy okruglar va tumanlar guruhlariga bog'langan. Tabiiy-iqlimiy okruglar va tumanlar bo'yicha kelajakdagi 2005-2030-yillar davomida o'rtacha mavsumiy haroratning o'zgarishi 3.4-jadvalda ko'rsatilgan.

Iqlim o'zgarishi bo'yicha prognozlar shuni ko'rsatmoqdaki, mintaqada: viloyatlar bo'yicha 2050- yilga kelib, o'rtacha bir yillik harorat 1,9-2,4°S darajaga oshadi, eng ko'p isish darajasi qishgi va bahorgi davrlarga to'g'ri keladi; yog'ingarchilikning o'rtacha bir yillik soni 15-18 foizga ortadi, bu davr ko'proq yoz paytiga to'g'ri keladi; havo darajasining ortishi bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jalik ishlab chiqarilishining yomonlashuvi va yanada xavfli shart-sharoitlari sababli qishloq xo'jalik ekinlarining evapotranspirasiyasi ortishi vujudga keladi; Orol dengizi havzasida bashorat qilinayotgan suv etishmovchiligini bosqichma-bosqich o'sishiga olib keladi. Shuningdek, suvga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi natijasida hamda Amudaryo va Sirdaryo daryolaridan suvni kafolatli olib qolinishi hajmining qisqarishi holatida suvning taqchilligi 500 foizdan ortib ketib, 2005- yildagi 2 km dan 2050- yilga kelib, 11-13 km ga etadi[2].

So'nggi yillarda global darajada avj olayotgan tabiiy-ekologik muammolar mamlakatimizning tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlariga o'z salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Jumladan, 2022- yilda O'zbekiston jahon mamlakatlarida havoning ifloslanishi reytingida 20 o'rinni (IQAir Index – 33,5) egallashi bilan birgalikda (1-rasm), mamlakatimizda havoning ifloslanish darajasi Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan o'rnatilgan me'yorga nisbatan 6,7 marta yuqori ekanligi aniqlangan[3]. Ushbu holat mamlakatda atrof-muhitni himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan davlat dasturlarini kuchaytirish lozimligidan dalolat beradi.



1-rasm. O'zbekistonning xalqaro «IQAir Index» ko'rsatkichi bo'yicha havoning ifloslanish darajasi indeksi[4]

2021- yilda O'zbekistonda daraxtlarni kesishga nisbatan moratoriyning joriy qilishini 316 mingga yaqin daraxtlarni asrab qolish imkonini berganiga qaramay, 3,0 mingdan ortiq qimmatbaho va noyob daraxtlarning noqonuniy kesilishi holatlari sodir bo'lgan. Shu bilan birgalikda, so'nggi yillarda daraxtlarning asossiz kesilishi natijasida mamlakatdagi salqin va sovuq havo hajmi 2,0 barobarga qisqarib, yoz oylarida anomal issiq havo harorati kuzatilmoqda. Natijada respublika hududida qumli va chang bo'ronlari miqdori tavsiya etilgan darajadan 30 barobarga oshib ketdi[5]. Ushbu tendensiyalar mamlakatning agroturistik salohiyatidan foydalanish holatiga ham o'z salbiy ta'sirini ko'ratmoqda.

Ekspertlar fikricha, havoning sifati mintaqaning ko'plab shaharlarida bo'lgani kabi qazib olinadigan yoqilg'idan ortiqcha foydalanish, atrof-muhit ifloslanishi bilan bog'liq ayrim muammolar, shuningdek, past sifatli yoqilg'idan foydalanish kabi noto'g'ri ekologik usullarni qo'llash sababli yuzaga keladi. Shuningdek sintetik, materiallar dunyoning bu qismida sodir bo'lgan kuchli chang bo'ronlari bilan birlashib ketmoqda. Shahar aholisining avtomobillardan haddan tashqari ko'p foydalanishi ifloslanish darajasiga sezilarli darajada hissa qo'shmoqda. Havo ifloslanishiga aksariyat hollarda fabrikalar, elektrostansiyalar va boshqa sanoat hududlaridan chiqayotgan gazlar ham sabab bo'lishi mumkin. Ko'mir va boshqa materiallarning yonishi butun respublika bo'ylab havodagi tutun, bug'lar va boshqa zararli moddalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Jahon amaliyoti tahliliga ko'ra, taraqqiy etgan mamlakatlarda barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida va milliy agroturistik xizmatlar ko'rsatish bozorini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarida 2030- yilga qadar bo'lgan muddatda daraxt ekish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilgan va muntazam amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, birgina Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida «yashil zona»lar hajmini oshirish maqsadida 2030- yilga qadar 3,0 mlrd. tup daraxt ekish bo'yicha dastur qabul qilingan bo'lib, u to'liq davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi. Shu bilan birgalikda, xususiy sektor vakillari uchun mazkur dastur doirasida daraxt ekish uchun sarflagan moliyaviy resurslariga mos hajmdagi soliqdan ozod etiladi.

Mamlakatimizda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, jumladan, turli maishiy texnikalardan foydalanish, sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalashda manaviy jihatdan eskirgan texnikalardan foydalanish amaliyotining ko'p holatlarda uchrashi atmosferaga chiqarilayotgan zararli va ifloslantiruvchi moddalar hajmini ortib borishiga olib kelmoqda.

Tabiat, ekologiya va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan yuqorida keltirib o'tilgan muammolarning avj olishi agroturistlar uchun yetarli darajada maroqli hordiq chiqarish imkoniyatlarini cheklashi bilan birgalikda, agroturistik resurslarga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Mazkur vaziyatni inobatga olgan holatda, keyingi yillarda mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash va atrof-muhitni himoyalashga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish, jumladan, viloyatlar kesimida agroturistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Usmanov Yu. *Holati buzilgan sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlarini tiklash. Scientific Progress. Vol. 3 | Issue 2 | 2022. – pp. 729-735*
2. Haqberdiev O.E., Sodiqova G.S. *O'zbekistonning yer-suv resurslari: muammo va yechimlari. O'quv qo'llanma – Toshkent. 2017. – 243 b.*
3. *Качество воздуха в Узбекистан. [Электронный ресурс] URL: <https://www.iqair.com/ru/uzbekistan>*
4. *Самые загрязненные страны и регионы мира (история данных за 2018-2022 гг.). [Электронный ресурс] URL: <https://www.iqair.com/ru/world-most-polluted-countries>*
5. Aslanova A., Musaeva R. *O'zbekiston dunyoning eng ifloslangan davlatlar reytingida 12 o'rinda: vaziyatni qanday tuzatish kerak? 20.05.2022 y. URL: <https://rost24.uz/uz/news/1045>*

ЗЕЛЁНАЯ ЭКОНОМИКА КАК ОСНОВА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА

Сагидуллин Фарид Радикович

*Научный соискатель кафедры «Экономика труда и управление»
Ташкентский филиал РЭУ им. Г.В. Плеханова*

Зелёная экономика представляет собой ключевую основу для устойчивого развития, так как её главная цель - гармонизировать экономический рост с сохранением природных ресурсов и экосистем. В условиях усиления климатических изменений и увеличения нагрузки на окружающую среду, переход к зелёной экономике становится важнейшей задачей для государств, стремящихся обеспечить долгосрочную экономическую стабильность и улучшение качества жизни своих граждан.

Современные вызовы, такие как загрязнение атмосферы, истощение природных ресурсов, потеря биоразнообразия и ухудшение здоровья населения, требуют разработки и внедрения новых моделей